QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

# O‘TKIR HOSHIMOVNING PSIXOLOGIZM YARATISH MAHORATI

https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.086

***Odilov Orifjon Odiljon o‘g‘li,***
*Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi.*
*E-mail: Orifjon-Odilov@mail.ru*
*Tel.: +998(93) 943-25-79*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani misolida adibning psixologizm yaratish mahorati tahlil qilinadi. Asar sarlavhasi, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, ijobiy va salbiy xarakterlar, ichki konflikt hamda romanning falsafiy g‘oyasi o‘rganiladi. Urush mavzusi, hayot va taqdir, insoniy tanlov, axloqiy mezonlar hamda davr fojiasi badiiy talqin nuqtayi nazaridan yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Psixologizm, roman, obraz, xarakter, urush, kompozitsiya, konflikt, falsafa.

## МАСТЕРСТВО УТКИРА ХАШИМОВА В СОЗДАНИИ ПСИХОЛОГИЗМА

**Аннотация.** В данной статье на примере романа Уткира Хошимова «Между двумя дверями» анализируется мастерство писателя в создании психологизма. Рассматриваются название произведения, его композиция, система образов, положительные и отрицательные характеры, внутренний конфликт, а также философская идея романа. Тема войны, проблемы жизни и судьбы, человеческого выбора, нравственные критерии и трагизм эпохи освещаются с точки зрения художественной интерпретации.

**Ключевые слова:** Психологизм, роман, образ, характер, война, композиция, конфликт, философия.

## UTKIR KHASHIMOV’S MASTERY IN CREATING PSYCHOLOGISM

**Abstract:** This article analyzes Utkir Hoshimov’s mastery of creating psychologism through the example of the novel “Between Two Doors”. The study examines the title, composition, system of characters, positive and negative traits, internal conflict, and the philosophical idea of the novel. The themes of war, life and destiny, human choice, moral values, and the tragedy of the era are explored from the perspective of artistic interpretation.

**Keywords:** Psychologism, novel, character, personality, war, composition, conflict, philosophy.

**KIRISH.** O‘tkir Hoshimovning urush mavzusidagi asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda bir qator o‘ziga xosliklarni ko‘ramiz. Hatto, ayrim holatlar badiiy kashfiyot, novatorlik darajalariga ko‘tarilgan, deyish mumkin. Avvalo, adibning o‘z asarlariga sarlavha – nom tanlashidagi o‘ziga xosliklar haqida to‘xtalish lozim.

Adib urush mavzusini qalamga olar ekan, bu asarlarga shunday nomlar qo‘llaydiki, bu nom asarning tub mohiyatini, muallif ko‘tarib chiqmoqchi bo‘lgan g‘oyani o‘zida mujassam eta olgan. Masalan, “Ikki eshik orasi” romanini olaylik. Falsafada inson hayoti ikki manzil (eshik) – tug‘ilish va o‘lim oralig‘idagi yo‘l, deya tushuntiriladi. Xususan, fransuz mufakkiri Jan Pol Sartr “Hayot B va D o‘rtasidagi “C”dir”, deya yozadi. Bunda faylasuf tug‘ilishni “B”, o‘limni “D” va bu ikki nuqta oralig‘idagi tanlovni “C” deya belgilaydi [4]. Bu ikki eshik oralig‘idagi yo‘lni esa umr deb ataymiz.

O‘tkir Hoshimov o‘zining urush yillari, inson va davr muammolari, insoniy kechinmalar, insonga xos fazilat va illatlar, inson irodasining sinovdan o‘tishi kabi chuqur falsafiy mavzular bayon etilgan romaniga “Ikki eshik orasi” deya nom beradi. Roman syujeti bilan tanishib chiqqan o‘quvchi bu romanga bundan yaxshiroq nom topib bo‘lmasligiga iqror bo‘ladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Romanning nomi va g‘oyasiga chuqurroq kirib borsak, adib roman nomidanoq ulkan badiiy g‘oyani ko‘tara bilganligining guvohi bo‘lamiz. Ya’ni, roman qahramonlari shu qisqagina – ikki “eshik” oralig‘idagi umr davomida necha bor imtihondan o‘tadi. Kimdir mustahkam irodasiga tayanib, asl insoniy fazilatlarida sobit qolsa, boshqasi, aksincha, umr yo‘lidagi mashaqqat va sinovlar oldida yengiladi, o‘zining havoyi istaklari domiga tushib, oqibat umr atalmish ne’matni behuda boy beradi.

Asar qahramonlari tizmidan Orif oqsoqol, Husan duma, Qora amma, Robiya, Olimjon kabi obrazlarning insoniy dahosi, hayot sinovlari oldidagi jasoratlari o‘quvchi ko‘z oldiga keladi. Ularni Umar zakunchi, Ra’no, Zuhra kabi obrazlar bilan solishtirganda adibning nega romanga bunday nom tanlaganligi ochiladi.

Darhaqiqat, O‘tkir Hoshimov o‘z asarlariga nom qo‘yar ekan, shunchaki sarlavha tanlamaydi, balki, asar mazmuni, g‘oyasini o‘zida mujassam eta bilgan o‘ziga xos quyma shakl kashf etadi. Romanda Orif oqsoqol tilidan aytilgan gapni eslang:

“– Bolam, – dedi ko‘zimga tikilib. – Odamzod yuz yil umr ko‘radimi, ming yilmi – baribir o‘lgisi kelmaydi. Ming yil yashagan bir sahoba “Esiz-esiz, u eshikdan kirdim-u, bu eshikdan chiqib ketyapman”, degan ekan. Shunaqa, bolam... Hech kim o‘lishni o‘ylamaydi. Ammo Xudo odamzodga umrni o‘lchab beradi. Shunaqalikka shunaqa-ku, odamning umri necha yil yashagani bilan sanalmaydi... – U xo‘rsindi. – Bir xil odamlar bor: U eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganda qo‘lidan kelgancha savobli ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g‘isht qo‘yib ketadi. Yana bir xillari bor: o‘sha imoratdan aqalli bitta g‘ishtni o‘g‘irlab ketgisi

keladi. O‘g‘irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshikka borganda baribir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi...” [1,551]

Adabiyotshunos olim Asror Samad “O‘tkir qalam” essesida ushbu romanning yaratilish tarixiga oid ayrim faktlarni eslab o‘tadi. Qayd etilishicha, adib dastlab asarni “Erta kuz” deya nomlaydi. Qissa hajmida tayyor bo‘lgach, muallif qoralamalari o‘zi istagan g‘oyaviy masshtabni qamrab ololmayotganini his qiladi va ikki yuz sahifali qoralamalardan voz kechadi.

Roman sifatida qayta yozayotgan asariga “Ikki eshik orasi”, deya nom beradi. Asror Samad bu haqida shunday deydi: “Agar adib boshqa nom, masalan, “Erta kuz”, “Taqdirlar” yoki umuman o‘zgacha nom qo‘yganida ham roman qiziqish bilan o‘qilavergan bo‘lardi. Ammo aynan “Ikki eshik orasi” degan o‘ychan nom tanladiki, bu yozuvchining oldiga qo‘ygan maqsadiga mos tushdi” [3,252].

Maullifning asar prologidagi fikrlari romanning badiiy maqsadini yanada ochib beradi: “…urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o‘tkazdi. Mushkul damlarda imonini, insonligini saqlab qolgan ota-onalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga o‘rnak bo‘lsa ne ajab!” [1,5].

Shu tariqa, “Ikki eshik orasi” nomi asar mazmunini to‘la ochib bergan unikal sarlavhaga aylangan. Bu o‘z navbatida qahramonlar ruhiyati, ichki dunyosini ochishga ham xizmat qilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** “Ikki eshik orasi” romaniga diqqat qaratsak, romanda bir varakayiga sakkizta qahramonning hikoyachi qilib olinganiga guvoh bo‘lamiz. Ular o‘rni va navbati bilan o‘quvchini asosiy voqealararo yetaklaydi. Asar voqeligini o‘z subyektiv munosabati nuqtayi nazaridan turib hikoya qiladi. Oqibatda yuqorida aytilgan romanning bosh qahramoni masalasi murakkab tus oladi va roman oqimiga o‘zgachalik bag‘ishlaydi. O‘rni bilan aytish kerakki, bunday holat bungacha yozilgan romanlarda noyob hodisa hisoblanadi. “Romanda 149 personaj qatnashadi, bu personajlarda asosiylari ham, ikkinchi darajalilari ham, hatto ko‘zga tashlanmaydigan uchinchi darajalilari ham bor. Boshqa romanlarda ko‘rilmagan bir hodisa borki, O‘tkir Hoshimov ana shu 149 personajning har biriga o‘ziga yarasha yuk qo‘ya olgan. Biron personajni roman matnidan ayro olib qo‘yib bo‘lmaydi. Shuhrat domla aytganidek, asardagi har bir harfni muallif “mixlab tashlagan” [3,252].

Romanning obrazlar tizimini ham alohida tahlil qilish mumkin. Ma’lumki, inson obrazi asarda egallagan o‘rni va vazifasiga ko‘ra adabiyotshunoslikda personaj, bosh obraz, ikkinchi darajali obraz, xarakter, qahramon, tip kabi tasnif qilinadi.

Personaj deb asarda ishtirok etuvchi barcha kishilarga aytiladi. Binobarin, “Ikki eshik orasi” romanida barcha inson obrazlarini personajlar nomi bilan umumlashtirishimiz mumkin. Ammo, romandagi personajlarning bosh yoki ikkinchi darajali (epizodik) turlarini farqlash zarur.

Adibning o‘zi romandagi bosh qahramonlarni tasniflash borasida voqealarni hikoya qiluvchi 8 ta personajni teng huquqli bosh obrazlar deb hisoblagan. Asarni o‘qish jarayonida muallif fikriga ishonch hosil qilish mumkin. Chindan-da, romanda deyarli barcha hikoyachi

qahramonlar syujetda tutgan pozitsiyasiga ko‘ra, o‘quvchida xuddi bosh qahramondek taassurot uyg‘otadi.

Shunday bo‘lsa-da, voqealar ketma-ketligini hikoya qilib beruvchi bosh qahramonlarning ham ikki tasnifga bo‘lish joiz. Chunonchi, Muzaffar va Robiya boshqa hikoyachilarga qaraganda ancha faolroq va asar g‘oyasining deyarli markazida turadi. Munavvar, Umar zakunchi, Ra’no, Shomurod, Qora amma kabi obrazlar esa garchi hikoyachi personajlar qatorida bo‘lsalar ham asar ziddiyatlarining rivojlanishida bir muncha sustroq xarakatlanadi. Bundan tashqari, Orif oqsoqol, Husan duma kabi personajlar tilidan voqealar hikoya qilinmasa-da, bu obrazlar boshqa hikoyachi personajlar bilan bir qatorda bosh qahramon darajasiga ko‘tarilgan.

Binobarin, romandagi personajlarning asar markazida turish darajalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

*1-jadval*

| **Personajlar** | **Bosh/epizodik** | **Bevosita hikoya qilishdagi ishtiroki** | **Asar voqealar rivojidagi darajasi** |
|---|---|---|---|
| Muzaffar | Bosh | + | O‘ta faol |
| Munavvar | Bosh | + | Faol |
| Robiya | Bosh | + | O‘ta faol |
| Shomurod | Bosh | + | O‘rta faol |
| Orif oqsoqol | Epizodik | – | Faol |
| Husan duma | Epizodik | – | O‘rta faol |
| Kimsan | Epizodik | + | O‘rta faol |
| Ra’no | Epizodik | + | Faol |
| Umar zakunchi | Epizodik | + | Faol |
| Qora amma | Epizodik | + | O‘rta faol |

Keyingi o‘rinda roman qahramonlarining ijobiy-salbiylik xususiyatlari turadi. Asar badiiy g‘oyasi asosida barcha ziddiyatlarga urush fojiasi sababchi qilib ko‘rsatiladi. Zero, mazkur romandagi personajlarning qaysidir ayb, nuqsonlariga davr, sharoit sabab bo‘ladi.

Shunday bo‘lsa-da, badiiy asar personajlarini ijobiy va salbiylik xarakteriga ajratishga majburmiz. Binobarin, hayotning ikki qutbi – ijobiylik va salbiylik ziddiyatlarni, ya’ni, asar konfliktini tashkil etadi. Konfliktsiz esa badiiy asar voqe bo‘lmaydi. Bunda faqat badiiy konflikt inson+inson yoki inson+jamiyat ko‘rinishidagiligiga ko‘ra farqlanishi mumkin. Ba’zan esa qahramon dunyoqarashi bilan bog‘liq ziddiyat ham uchraydi. Bu shaxsning o‘zi bilan o‘zi kurashishi ichki konfliktni keltirib chiqaradi (“Kecha va kunduz”da Miryoqub o‘zini o‘zi ayblashini eslang). Ayni shu jihat qahramonni ijobiy yoxud salbiylikka ajratishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

“Ikki eshik orasi” romanidagi Parcha obrazini olaylik. Bu qahramon garchi o‘ta to‘pori, ta’bir joiz bo‘lsa, biroz farosatsizroq tasvirlansa ham uning xatti-harakatlaridan mehnatkashligi va halolligi sezilib turadi. Mehnatkashlik va halollik esa insonga xos fazilat sanaladi. Biz mana shu mezonga asoslanib bu qahramon ijobiy obraz, deya hukm chiqara olamiz. Ko‘rinadiki, Parchaning halol va mehnatkashligi bu qahramonning badiiy haqiqatdagi pozitsiyasi. Zero,

“Ikki eshik orasi” romanidagi qahramonlarni ham ikki xil – ijobiy/salbiylik va qahramonlarning badiiy haqiqatdagi pozitsiyalariga ko‘ra, quyidagicha tahlil etish mumkin:

*2-jadval*

| **Personaj** | **Hususiyati** | **Ijobiy/salbiyligi** |
|---|---|---|
| Muzaffar | Qurbon, mard va sermushohada | Ijobiy |
| Munavvar | Qurbon. Ziyoli | Ijobiy |
| Robiya | Mushtipar. Sodda va halol | Ijobiy |
| Kimsan | Jo‘mard, chapani | Ijobiy |
| Shomurod | Mazlum. Jasur | Ijobiy |
| Qora amma | Mushtipar. Sodda va halol | Ijobiy |
| Ra’no | Xudbin va nodon | Salbiy |
| Umar zakunchi | Razil va pastkash | Salbiy |
| Orif oqsoqol | Oqil | Ijobiy |
| Husan duma | Tanti, jo‘mard | Ijobiy |
| Parcha | Mehnatkash, sodda va halol | Ijobiy |
| Rashid abzi | Oriyatli va oliyjanob | Ijobiy |

Ko‘rib o‘tganimizdek, personajlarning katta qismi ijobiy qahramonlar. Yana asarda shunday qahramonlar borki, ular xarakterida ijobiylik xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanmasa-da, salbiylikdan ancha yiroq. Misol uchun Rashid abzi obrazi.

Bu personaj yozuvchining ma’lum badiiy maqsadi uchun kiritilgan. Uning yurish-turishi, fe’l-atvorida kishini o‘ziga tortar darajadagi namunaviylik yo‘q hisob. Ko‘p ichkilik ichishi, sergapligi qaysidir ma’noda ijobiylik sifatiga zid. Ammo, e’tibor bersak, bu qahramon boshqalarga yomonlik sog‘inmaydi, atrofdagilarga qo‘lidan kelganicha yordam bergisi keladi. El-yurtning yaxshi-yomon kunida qatorda turishni (garchi o‘zbek bo‘lmas-da) o‘zining insoniylik burchi, deb biladi. Eng so‘nggi daqiqada ham bir g‘arib, mushtipar Parchaga o‘zining yagona bisoti – echkisini tashlab ketadi. Tantiligi, yuksak oliyjanob fe’l-atvori sabab qishloq ahli uni o‘zlari sezmagan holda yaxshi ko‘radilar.

Binobarin, asardagi shu kabi personajlarni ijobiy va salbiy xarakterlarga ajratishda ijobiylikning ustunligini ko‘rishimiz mumkin. Demakki, mana shunday nofaol personajlarni ijobiy yoki salbiy obraz sifatida e’tirof etishda birmuncha noaniqlik yuzaga kelishi tabiiy. Bunda ularni badiiy haqiqatdagi pozitsiyasi, ya’ni ular fe’l-atvori xususiyatlaridagi nisbiy ustunlik hisobga olinishi kerak.

Umuman olganda, inson hayotda mutlaq yaxshi yoki mutlaq yomon bo‘lishi mumkin emas. Bu fikr falsafa, psixologiya va dinshunoslikda juda keng qo‘llaniladigan, asosan to‘g‘ri deb tan olingan nazariyadir. Uni inson tabiatining dialektik murakkabligi deb atash mumkin.

Inson – murakkab mavjudot: Hech bir inson bir yoqlama emas. Aksincha, har bir insonda mehr-shafqat, vijdon, mehnatsevarlik kabi yaxshi fazilatlar bilan bir qatorda g‘azab, dangasalik

kabi salbiy jihatlar ham mavjud bo‘lishi tabiiydir. Bu tushuncha Aristotel, Konfutsiy, Forobiy kabi mutafakkirlarning fikrlari hamda qadimgi Xitoy falsafasining “Har bir oq sathning qora, har bir qora sathning oq nuqtasi bor” mazmunini anglatuvchi “In-Yan” ramzini yodga soladi.

Qolaversa, “Mutlaq yaxshi” va “Mutlaq yomon” tushunchalari faqat absolyut tasavvurlardir. Real hayotda esa eng yaxshi inson ham xato qiladi, eng yomon deb hisoblagan odam ham ezgulik qilishga qodir. Psixologiyada bu “kulrang zonalar nazariyasi” bilan mos keladi. Bu yondashuv badiiy asarlar tahlilida qahramon ruhiyatini tushunishni osonlashtiradi.

Axloq falsafasi insoniy kechinmalarni jarayon sifatida talqin qiladi. Xususan, ekzistensialistlar fikricha, odam tug‘ilganida “yaxshi” yoki “yomon” bo‘lmaydi. Demak, inson doim o‘zgaruvchandir.

Dinlar ham buni tasdiqlaydi. Xususan, Islom ta’limotiga ko‘ra, har bir insonda nafs ham, qalb ham bor. Qaysi biri ustun kelishiga qarab odamning amali va taqdiri o‘zgaradi. Ya’ni, mutlaq yomon yoki mutlaq yaxshi inson yo‘q, gunoh va savob orasida izlanayotgan banda bor. O‘tkir Hoshimov o‘z qahramonlarini tasvirlashda ana shu haqiqatni hisobga olgan.

**XULOSA.** “Ikki eshik orasi” romanidagi personajlar orasida xarakter darajasiga ko‘tarilganlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Muallifning bu boradagi badiiy muvaffaqiyatini e’tirof etmoq kerak. Xususan, Husan duma obrazidagi qaysarlik, dumbultabiat, dangalchilik uning har bir xatti-harakatidan sezilib turadi. O‘tkir Hoshimov Qora ammaning tilidan bunga “...Kindigini o‘zi kesganlar xilidan” deya izoh berib o‘tgan. Yoki Orif oqsoqoldagi oqillik, uzoqni ko‘ra bilish, boshqaruvchanlik salohiyati va shu bilan birgalikda o‘ta tavakkalchi fe’l-atvori o‘quvchining ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘rni kelganda qayd etish joizki, Orif oqsoqol donishmand, ammo u ham inson. Xato qilishi mumkin, hatto buni o‘zi ham tan oladi:

“Nazarimda uning boyagi salobati susayib qolgandek, to‘satdan qaddi bukilgandek tuyuldi. Negadir kattakon kaftining orqasi bilan oppoq, quyuq qoshlarini silab qo‘ydi. Bilmadim, qoshini siladimi, ko‘zini artdimi?..

– Kelin... – dedi ammamga zimdan qarab, ovozi titrab ketdi. – Nimagayam padarla’nat urush bo‘ldi-a?! Mendayam ayb ko‘p-a, nima deysan, kelin?” [1,551-552].

Yana bir jihat, muallif personaj xarakterini ochar ekan, o‘quvchida beixtiyor kulgi uyg‘ota olish san’atidan ham mahorat bilan foydalangan. Qora ammaning sigir sog‘ishi lavhasini bir eslang. Kampir – sodda, savodsiz qishloq ayoli. Zotdor sigirga ruschalab gapirish kerak, deya tushunib, o‘zi bilmagan holda sigirni so‘kadi. Mana shu misolning o‘zidanoq yozuvchining xarakter ochishdagi mahorati yaqqol namoyon bo‘lgan.

Qora ammaning asl ismi roman davomida biror marta ochiqlanmagan. Asar qahramonlari Muzaffar va Robiya tilidan ammaning rang-ro‘yi qora ekanligi aytib o‘tilgan. Shu sababdan Muzaffar ammasini “Qora amma” deb ataydi. O‘z navbatida Qora amma ham bundan xafa bo‘lmaydi.

Asar mazmunidan kelib chiqib, qora ammani Muzaffarning katta ammasi deb hisoblashimiz mumkin. Chunki Qora amma Shomurodning opasi edi. Ammo uning “qora” sifati shunchaki rangiga ishora qilmaydi.

O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning fikricha, “Qora amma kalimasidagi “qora” rang yoki sifat emas. Qadim turkiy an’anaga ko‘ra, “qora amma” degani “katta amma” ma’nosini anglatadi”. Shoir o‘zining ham qora ammasi borligini aytib o‘tgan [5].

Darhaqiqat, Qoraxoniylar sulolasi nomi ham qora so‘zining “buyuk, ulug‘” ma’nosidan kelib chiqqanligi tarixiy dalillardan biridir. Taxtga o‘tirgan har bir hukmdor ismiga “Qoraxon” so‘zi qo‘shib aytilishi ushbu sulolaning an’anasi bo‘lgan. Demak, kishilarning mansabi yoki qarindoshlik darajasiga “qora” so‘zining qo‘shib aytilishi Qoraxoniylar davridan qolgan an’ana bo‘lsa ajab emas.

Bugungi kunda ham yurtimizning ayrim hududlarida qora aya, qora buvilar bor. Qora aya – ovsinlarning eng kattasi hisoblanadi. Ovsinlarning bolalari uni shunday atashadi. “Katta aya” deb chaqirish ham aynan “qora aya” bilan bir xil. Qora buvi so‘zi esa, asosan, Farg‘ona va boshqa hududlarda aynan ona (aya) ma’nosida kelishini inobatga olsak, qora buvi – onadan katta bo‘lgan onadir. G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida ham yetimlarning buvisi Roqiya bibi “qora buvi” deb atalishi bejiz emas [2].

O‘z navbatida, boshqa obrazlarning ismi ham bejiz tanlanmagani ko‘zga tashlanadi. Orif oqsoqolning ismi “ilmli, ma’rifatli” mazmunini berishi uning kayvoniligiga, Husan dumaning ismi uning Orif oqsoqolning ramziy egizagi ekanligiga ishora qilsa, Kimsan ismi taqdirida bedarak ketish yozilganidan darak beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimov o‘z asarlari, xususan, “Ikki eshik orasi” romanida obraz yaratish, shaxsa ruhiyatini ochish borasida qator orginalliklarga erishgan.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ҳошимов Ў. Танланган асарлар. V жилд. Икки эшик ораси. – Тошкент: Шарқ, 2012. – 576-б.
2. Rasulova S. Qora ammangiz bormi? // Jomboy tongi, 2023-yil, 23-sentabr, 35-son.
3. Самад А. Ўткир қалам. – Тошкент: Мериюс, 2013. – 364-б.
4. https://medium.com/write-a-catalyst/new-spelling-of-life-bcd-85cfd214c5c5
5. https://t.me/xurshiddavronkutubxonasi/2202